ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

AMINOVA DILNOZA
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi 7

QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida 11

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati 14

QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri 17

BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba 22

MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini 27

SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) 35

ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin 38

ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 47

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri 49

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) 52

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей 55

DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi 58

TA’LIM

МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА
Современные методы преподавания русского языка 58

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY ASARLARDAGI MAQOLLARNING EVOLYUTSIYASI ("ZARBULMASAL" ASARI MISOLIDA)

Kodirova Saodat Abdiraximovna,
Navoiy davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi

"Zarbulmasal" maqollarning qo'llanishi nuqtayi nazaridan boshqa yozma yodgorliklardan farq qiladi. "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq" kabi asarlar yoki turli she'riy asarlarda maqollarning uchrashi muallifning xalq maqolini fikrini dalillash uchun keltiradi. "Zarbulmasal" esa maqollarni to'plash maqsadi bilan yozilgan, ushbu asarda xalq maqollari ajratib ko'rsatilgan: har bir maqol qo'shtirnoqqa olingan. Bu asarning barcha nusxalariga birdek tegishli. Shu bilan birga mazkur asarda maqol sifatida ta'kidlanmagan fikrlar ham uchraydiki, ular bugungi kunda xalq maqoli sifatida e'tirof etilgan. Quyida shu fikrlardan ayrimini tahlil qilish asosida maqollarning shakllanishida "Zarbulmasal"ning o'rnini ko'rsatish mumkin bo'ladi. "Zarbulmasal"dan quyidagi parchani tahlilga tortamiz:

Anda Kuykanak aydi: «Mani bu arkoni davlat arosinda haqiru kichkinota ko'rdingizmu?!» «Kichkina demang bizni, sakrab urarmiz sizni». Va yana aytmishlar: «O'z joyinda Kuykanak ham Qoz olur ham o'rdak»[1].

Yuqoridagi matnda kelgan *Kichkina demang bizni, sakrab urarmiz sizni* maqoli bugungi kunda *Kichkina demang bizni, ko'tarib urarmiz sizni* shaklida qo'llanib, mazmun va leksik o'zgarish kuzatiladi: *sakrab urarmiz* shakli *ko'tarib urarmiz*ga o'zgargan, ma'no kuchayishi sodir bo'lgan.

Masaldurkim, «(ketingga) boq, nag'ora qoq». Yoinki «o'zingni er bilsang, yana birovni sher bil»[2]. Mazkur kontekstdagi birinchi maqol o'zgargan, ikkinchisi o'zgarmagan: birinchisida shakliy evolyutsiya yuz bergan. *(ketingga) boq, nag'ora qoq* jumlasi hozir qo'llanadigan *Avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq* maqolining shakllanishiga asos bo'lgan yoki matnda kuchli transformatsiya bilan qo'llangan.

«Oz oshim g'avg'osiz boshim», deb yalg'uz inoyat qiling[3]. Mazkur gapda keltirilgan maqol evolyutsiyaga uchragan: *oz oshim g'avg'osiz boshim* maqoli *yarimta non rohati jon* shaklida qo'llanadi. Bu o'rinda ko'rish mumkinki, *oz osh* birikmasi *yarimta non, g'avg'osiz boshim* birikmasi *rohati jon* birikmasi bilan berilgan. Gapning leksik birliklari almashgan, ma'no saqlanib qolgan.

Ko'rga (molni) chala pishgan chandiri: «Aldatsang ham yoshqa aldat!»[4] konteksti bizga "Aldagani bola yaxshi" maqolini eslatadi. Ko'rinadiki, bu o'rinda ham sintaktik, leksik o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Anda Ko'rqush aydi: «Xayr ishiga hech istixora hojat emas». Nechukkim bu bobda lisonul g'ayib Xoja Hofiz Sheroziy aytibdurlar. Misra': Dar kori xayr hojati hech istixora nest[5].

Xalqimizda xayrli ishni kechiktirmaslik mazmunidagi maqollar ko'pchilikni tashkil etadi. Fikrimizcha, bu maqollar yuqorida Gulxaniy tilida keltirilgan fikrning ma'no taraqqiyotidan shakllangan.

Anda Sho'ranul aydi: «Ey podshohi olam, eshitganim borki, «bilumsiz bilagi yo'g'on birni urar, bulumluk bilagi ingichka borchani farosat birla sinar». Yo onki aytmishlar: Misra': Sarnavishti ahli ma'ni chun qalam shohastu bas![6] Mazkur matnda keltirilgan «bilumsiz bilagi yo'g'on birni urar, bulumluk bilagi ingichka borchani farosat birla sinar» maqoli bugungi kunda qo'llaniladigan *"Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r mingni"* maqolining shakllanishiga asos bo'lgan. Mazkur maqolning ikki variantini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ma'no saqlangan, leksik, sintaktik o'zgarishlar sodir bo'lgan. Qiyoslang:

[1] Гулханий. Зарбулмасал. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – 22 б.
[2] Гулханий. Кўрсатилган асар. – 22 б.
[3] Гулханий. Кўрсатилган асар. – 25 б.
[4] Гулханий. Кўрсатилган асар. – 27 б.
[5] Гулханий. Кўрсатилган асар. – 27-б.
[6] Гулханий. Кўрсатилган асар. – 29-б.

1-jadval

bilumsiz bilagi yo‘g‘on birni urar, bulumluk bilagi ingichka borchani farosat birla sinar	*Bilagi zo‘r birni yiqar, Bilimi zo‘r mingni*

Mazkur maqollar orasidagi o‘zgarishlarni quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, *bilumsiz bilagi yo‘g‘on* birikmasi keyingi davrda *bilagi zo‘r* birikmasi shakliga kelgan. Oldingi shaklida “bilimsiz, lekin kuchli” degan fikr ta’kidlansa, keyingi shaklida “kuchli” kishi haqida fikr yuritiladi;

ikkinchidan, *bulumluk bilagi ingichka* birikmasi *bilimi zo‘r* shaklida ifodalanib, dastlabki variantdagi “bilimli, ammo kuchsiz” ma’nosi kuchsizlanib, “bilimli kishi” sifatida ma’no umumlashtirilgan;

uchinchidan, *farosat birla sinar* ifodasi transformatsiyaga uchragan, keyingi matnda tushib qolgan.

Tahlillardan ko‘rinadiki, maqolning dastlabki variantida ta’kidlash kuchli bo‘lsa, keyingi shaklida ma’noning umumlashishi kuzatiladi.

Siz anga o‘xshab yo Sulton amrini bitkaring, yo o‘z nafsingizni. «Iki suyukluk bir ko‘ngulga sig‘mas», debdurlar. Masaldurki, «Iki kema tutqonlar qoldi g‘arqob ichinda»[1].

Yuqorida keltirilgan ushbu parchada ikki maqolning o‘zgarishi haqida fikr yuritish mumkin. Qiyoslang:

2-jadval

Iki suyukluk bir ko‘ngulga sig‘mas	1. Bir etikka ikki oyoq sig‘mas, Bir yurakka — ikki muhabbat. 2. Ikki pichoq bir qinga sig‘mas, Ikki sevgi — bir ko‘ngilga. 3. Ikki suyuk bir ko‘ngilga sig‘mas[2].
Iki kema tutqonlar qoldi g‘arqob ichinda	*Ikki kemaning boshini tutgan g‘arq bo‘lar*[3]

Birinchi maqolning bugungi kunda ishlatiladigan 3 varianti kuzatiladi. Jadvalning birinchi satridagi birinchi va ikkinchi ustundagi maqollarni qiyoslar ekanmiz, birinchi va ikkinchi raqamda belgilangan maqollarning sintaktik jihatdan qo‘shma gap shaklini olgani, bu bilan ma’no taraqqiyotiga o‘tgani ko‘rinadi. Bu maqollarda hodisa o‘xshatish asosida izohlangan: bir yurakka ikki muhabbatning sig‘masligi *bir etikka ikki oyoqning sig‘masligi, ikki pichoq bir qinga sig‘masligi*ga qiyoslangan. Uchinchi maqolda esa kichik o‘zgarish sodir bo‘lgan: *Iki suyukluk* birikmasidani bosh so‘zning tarkibidagi so‘z yasovchi qo‘shimcha tushib qolgan, tobe so‘zning tovush tarkibi o‘zgargan.

Ikkinchi satrdagi maqolning mazmuni to‘la saqlangan, ammo sintaktik transformatsiya sodir bo‘lgan. Solishtiramiz:

Iki kema tutqonlar // Ikki kemaning boshini tutgan qoldi g‘arqob ichinda // g‘arq bo‘lar

Demak, asosiy o‘zgarish sintaktik strukturada sodir bo‘lgan.

Yo onki: «*Ema bilgan qo‘zilar iki anoni teng emar, ema bilmas qo‘zilar o‘z anosin emolmas*». Kamina o‘z nafsimni ham xushnud qilurman, sulton amrini ham. Ushbu kontekstda qo‘llangan maqol bugungi kunda “*Yaxshi buzoq ikki onani emar*”[4] mazmunli maqolning shakllanishi uchun asos bo‘lgan deyish mumkin. “Zarbulmasal”da uchragan shakli nisbatan kengroq, ma’no urg‘ulangan, qo‘shma gap shaklidagi jumladan tuzilgan. Bugungi kunga kelib ushbu fikr *Yaxshi buzoq ikki onani emar* shaklida soddalashgan, ma’no saqlangan, shakliy transformatsiya sodir bo‘lgan.

Anda Turumtoy aydi: «Afandim, xato qildim, ***og‘zi oshga tegganda burni qonag‘on man bo‘ldum*** *o‘xshar. Eshitganingiz yo‘qmukim, burung‘ilar masalidurki «Arg‘umoq ot bo‘lmas ozg‘on so‘ng, xojasi quliga boqmas yozg‘on so‘ng», lekin bandaning har qancha jurm-xatosi bo‘lsa, podshohni andin ortug‘roq afvu atosi bo‘lur*[5].

Ajratib ko‘rsatilgan maqol masaldurkim, deb ajratilmagan, demak, u vaqtda maqol deb tan olinmagan, muallifning o‘z so‘zi bo‘lishi mumkin. Kuzatishdan ma’lum bo‘ladiki, ushbu ifoda shakli bugungi kunda *“Kambag‘alning osh ustida burni qonar”, “Kambag‘alning og‘zi oshga yetganda, Boshi toshga tegar”, “Og‘zi oshga tekkanda burni qonadi”*[6] kabi shakllarda qo‘llanadi. Asar matnida muallif o‘z so‘zi sifatida ishlatganda kichik o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, bu o‘zgarishlar vaqt o‘tib sodir

[1] Гулханий. Кўрсатилган асар. – 31-б.
[2] https://ziyouz.uz/hikmatlar/ozbek-xalq-maqollari/muhabbat-va-bevafolik-haqida-maqollar/
[3] https://maqollar.uz/cards/7748
[4] https://ziyouz.uz/hikmatlar/ozbek-xalq-maqollari/epchillik-va-noshudlik-haqida-maqollar/
[5] Гулханий. Кўрсатилган асар. – 32-б.
[6] https://ziyouz.uz/hikmatlar/ozbek-xalq-maqollari/baxt-omad-va-baxtsizlik-haqida-maqollar/

bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

*Andog‘ ham bo‘lsa, o‘z sarafkandalari, intiqom javorinda yo‘qtur va afv qilg‘udekdur. Kordon aydi: «**Sungan bo‘yunni qilich kesmas**», debdurlar. Gunohingni afv qildim. Va yana bildimki, kam safarlikdin bu so‘zni ayding. Safarda bisyor tajribalar hosil bo‘lur.*

Mazkur matnda ajratib ko‘rsatilgan maqol bugungi kunda “Egilgan boshni qilich kesmas” shaklida qo‘llanadi[1]. Hatto she’riy matnlarda inversiyaga uchrash holatlari ham kuzatiladi. Miraziz A’zamning “Egilgan bo‘yinlar” she’rida quyidagicha qo‘llanishni ko‘rish mumkin:

«Egilgan bo‘yinni kesmaydi qilich…»
Egilgan bo‘yinni kesmasa qilich,
qilichlik nomini o‘chirmoq kerak,
Egilgan bo‘yinni kesmasa qilich.
Egilgan bo‘yinlar egilib yashar,
egilgan bo‘yinlar qilar har ishni.
Yashasa bo‘lgani egik bo‘yinlar,
yuz yillar orqaga surib turmushni…
Egilgan bo‘yinni qilich kesmas,
deb yashamoq kerakmi bo‘yinni egib?
Do‘stlarim, do‘stlarim, qo‘shilmangiz hech,
bo‘yinlar tik bo‘lsin, kessa ham qilich…[2]

“Zarbulmasal” matni, xalq og‘zaki ijodi va she’riy matnda qo‘llanishini solishtiring: *Sungan bo‘yunni qilich kesmas //Egilgan boshni qilich kesmas.* Ko‘rinadiki, *sungan bo‘yun* birikmasi *egilgan bosh* shakliga kelgan. Umuman olib qaraganda, ta’riflanayotgan mazkur ikki ifoda aynan bir harakatni bildiradi.

Y.Rahmatovning ko‘rsatishicha, “Qutadg‘u bilig” tarkibiga kirgan maqollar “Devonu lug‘atit turk” tarkibidagi maqollardan ikki jihatdan farq qiladi:

1. Shoirning ijodiy yondashuvi sabab shakli o‘zgargan maqollar.

2. Shoirning badiiy tafakkurida sayqallanib, mazmunan o‘zgargan maqollar.

“... xalq maqollarining uzoq yashovchanligi va ko‘p qo‘llanishini e’tiborga olgan holda ularning tadrijiy taraqqiyotini ilmiy jihatdan o‘rganish mumkin. Bu esa bir maqolning har bir davr yozma adabiyotida va og‘zaki ijodida qay tarzda qo‘llangani, xalqning va individual ijodkorning unga munosabati, badiiy va adabiy yodnomalardagi g‘oyaviy-badiiy maqsadi bilan bog‘liqlikda o‘rganish asosida amalga oshiriladi[3].

“Zarbulmasal” asari matnini o‘rganish asosida shuni aytish mumkinki, muallif tomonidan shakliy o‘zgarish kiritilgan maqollar hamda o‘zgartirishsiz – qo‘shtirnoqqa olingan holda qo‘llangan xalq maqollari uchraydi. Asarning yozilishidan kelib chiqadigan maqsad ko‘p hollarda maqollarni aynan qo‘llash yondashuvini qo‘llab-quvvatlasa, ayrim o‘rinlarda hali maqol sifatida shakllanmagan, ammo xalq orasida uning tajribasi, donoligi namunasi sifatida turli ko‘rinishda ishlatilib kelinayotgan birliklar muallifning fikri sifatida keltirilgan. Shunday birliklar bugungi kundagi qator maqollarning shakllanishiga asos bo‘lgan deyish mumkin.

Rezyume. Proverbs are one of the oldest popular genres of Uzbek folklore, which reflects the worldview, attitude to society and moral norms of the people. This article elucidates certain ancient proverbs and their new versions in today’s literature. That’s why proverbs have a long life. Every historical period, socio-political events leave their traces in proverbs.

Резюме. Пословицы – один из древнейших народных жанров узбекского фольклора, отражающий мировоззрение, отношение к обществу и моральные нормы народа. В этой статье раскрываются некоторые древние пословицы и их новые версии в современной литературе. Вот почему пословицы имеют долгую жизнь. Каждый исторический период общественно-политические события оставляют свои следы в пословицах.

[1] https://ziyouz.uz/hikmatlar/ozbek-xalq-maqollari/togrilik-va-egrilik-haqida-maqollar/

[2] https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/10-mart-miraziz-azam.html

[3] Раҳматов Й.Ғ. Мақол ва унинг ўзбек мумтоз адабиётидаги эволюцияси: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2023. – 268 б. – 143-б.